

TARIX DARSLARINI TASHKIL ETISHDA 4K MODEL VOSITASIDA INTERFAOL
METODLARDAN SAMARALI FOYDALANISH

Olimova Zulfiyaxon Ibrohimjon qizi

Andijon davlat pedagogika instituti Ijtimoiy-gumanitar fanlar va san'at fakulteti

Tarix yo'nalishi 2-bosqich talabasi

zulfiyaolimova98@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada tarix darslarini tashkil etishda 4K modelidan samarali foydalanish, 4K yondashuvining asosiy tamoyillari: kallobratsiya, kommunikativlik, kreativ fikrlash, kritik fikrlash shuningdek, tarix darslarini tashkil etishda 4K modeli vositasida interfaol metodlardan foydalanish haqida umumiy ma'lumotlar berilgan.*

Kalit so'zlar: *4K modeli, kritik fikrlash, kreativlik, kommunikatsiya, kallobratsiya, ko'nikma, metodlar, kompetensiya, konsepsiya, zamonaviy ta'lim.*

**ЭФФЕКТИВНОЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ ЧЕРЕЗ
МОДЕЛЮ 4К ПРИ ОРГАНИЗАЦИИ УРОКОВ ИСТОРИИ**

Аннотация: *В данной статье представлены общие сведения об эффективном использовании модели 4К при организации уроков истории, основные принципы подхода 4К: сотрудничество, коммуникация, творческое мышление, критическое мышление, а также использование интерактивных методов с помощью модели 4К в организации уроков истории.*

Ключевые слова: *модель 4К, критическое мышление, креативность, коммуникация, сотрудничество, навыки, методы, компетентность, концепция, современное образование.*

**EFFECTIVE USE OF INTERACTIVE METHODS THROUGH THE 4K MODEL IN
ORGANIZING HISTORY LESSONS**

Abstract: *This article provides general information about the effective use of the 4K model in the organization of history lessons, the main principles of the 4K approach: collaboration, communication, creative thinking, critical thinking, as well as the use of interactive methods with the help of the 4K model in the organization of history lessons.*

Key words: *4K model, critical thinking, creativity, communication, collaboration, skills, methods, competence, concept, modern education.*

Bugungi zamonaviy ta'lim darslarida o'qituvchidan dars jarayonlarida yangi o'quv dasturlari va metodlaridan foydalanib dars jarayonlarini tashkil etish talab qilinmoqda. E'tibor beradigan bo'lsak hozirgi ta'lim oluvchi yoshlar o'n yillar oldingi

ta'lim oluvchilardan tubdan farq qiladi. Buning sababi shundaki, hozirgi kunda barcha jarayonlar shu jumladan ta'lim sohasi ham zamonaviy tarzda, kompyuter texnologiyalari va turli xil o'quv dasturlari orqali olib borilmoqda. Bu hol quvonarli albatta.

Bugungi kunda ta'lim jarayonida o'qitishning zamonaviy 4K dasturi va usullari yordamida dars jarayonlarini tashkil etish yuqori natijalarga erishishning qulay va samarali usullaridan biri hisoblanadi. Shu sababli ta'lim sohasini yanada rivojlantirish uchun hozirgi zamon talablariga mos dars jarayonlarini rejalashtirish va ular asosida tashkil etish muhimahamiatga ega hisoblanadi. Shuning uchun ham tarix dasrlarida o'quvchilarning qiziqishini yanada oshirish uchun 4K modeli asosida metodlardan foydalanib tashkil etishimiz zarur.

“4K yondashuvi haqida Xalq ta'limi vazirining 2022-yil 5-dekabrda 372-sonli “Xalq ta'limi tizimida uzluksiz metodik xizmat ko'rsatish ishlarini yanada takomillashtirish” to'g'risidagi buyrug'ida ham ta'lidlab o'tilgan”.⁹²

4K modelidan foydalanishda o'quvchilarni tanqidiy fikrlashga o'rgatish, o'z fikrini erkin va aniq bayon eta olish, maktab o'quvchilarining har tomonlama rivojlanishiga qaratilgan bo'lib, 4 ta “K” harfi bilan boshlanadigan kompetensiyani o'z ichiga oladi:

Kritik fikrlash – tanqidiy fikrlash bu mustaqil fikrlaydigan shaxs sifatida boshqalarning fikr va g'oyalarini o'zlashtirmaslik, har doim o'z fikriga ega bo'lish, ularni boshqalar oldida ham erkin bayon eta olish va ularni dalillar bilan isbotlash, olingan ma'lumotlarni tanqidiy baholash, o'z fikri va mulohazalarini shakllantirish ko'nikmalarini rivojlantirishni o'z ichiga oladi O'quvchilarning ana shunday muhim kompetensiyalarni rivojlantirish bugungi zamonaviy ta'lim tizimining asosiy maqsad va vazifalaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda o'quv jarayonini o'quvchilar uchun har tomonlama qiziqarli va foydali tarzda olib borishga imkon yaratishini hisobga olsak, maktabdagi har bir darsni o'quvchilar faqat fan mazmunini o'zlashtiradigan darajada emas, balki mustaqil bilim oladigan va shaxsiy qobiliyatlarini rivojlantiradigan jarayonga aylantirishimiz zarur. Bu kabi ishlarni samarali tarzda amalga oshirish uchun bir qator ishlarni amalga oshirishimiz kerak.

Kreativ fikrlash – ya'ni ijodiy fikrlash insonni mashina va sun'iy intellektdan ajratib turadigan yangilik qilish qobiliyatini shakllantiradi va rivojlantiradi. O'quvchilarda o'z maqsadlariga erishish uchun yangi yondashuvlarni qo'llashni o'rganishini, innovatsion yechimlarni ishlab chiqishni va muammolarni ijobiy tomonga hal qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Kommunikativlik – bu jamiyatda muloqot qilish qobiliyati bo'lib, o'quvchilar o'z fikrlarini aniq va ravshan ifodalash, suhbatdoshini tinglash va tushunish, ma'lumotlarni yetkazishda til vositalaridan unumli foydalanishni o'rganishdir.

Kollaborasiya – hamkorlik bu jamoada ishlash ko'nikmasi hisoblanadi hamda

⁹² <https://lex.uz>

o'quvchilarning jamoada ishlash qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Topshiriqni bajarayotganda o'quvchilarning hamkorlik asosida ishlashlari, birovning g'oya va fikrlarini to'g'ri qabul qilish, shuningdek, o'z fikrini himoya qilishga asoslangan, o'zaro hamkorlikda ishlash, samarali fikr almashish va o'zaro qo'llab-quvvatlash ko'nikmalarini o'rganishni shakllantiradi. Kollaborativlik, ya'ni hamkorlikda o'qitish g'oyasi turli mamlakat olimlari, shu jumladan, J.Xopkins universiteti professori R.Slavin, Minnesotti universiteti professorlari R.Jonson, D.Jonson, Koliforniya universiteti professori Sh.Sharon tomonidan tadqiq etilgan. Hamkorlikda o'qitish har bir o'quvchini kundalik aqliy mehnatga, ijodiy va mustaqil fikr yuritishga o'rgatish, shaxs sifatida shakllantirish, har bir o'quvchida shaxsiy qadr-qimmat tuyg'usini shakllantirish, o'z kuchi va qobiliyatiga bo'lgan ishonchni yanada orttirish, tahsil olishda mas'uliyat hissini shakllantirishni ko'zda tutadi.

Yuqorida keltirilgan kompetensiyalarni rivojlantirish uchun o'z hissamizni qo'shishni istasak, o'quv jarayonini rejalashtirishda o'quvchilar uchun qiziqarli va foydali qilishni ta'minlashimiz zarur. Maktabda olib boriladigan dars o'quvchilar faqatgina fan mazmunini o'zlashtiradigan emas, balki mustaqil bilim oladigan va qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradigan jarayondir.

Dars jarayonlari davomida qo'llanilayotgan interfaol metodlar, ko'rgazmali qurollar va tarqatma materiallar ham 4K modeliga asoslangan holda tashkil, dars samaradorligi yana ham yuqori bo'ladi. Quyidagi keltirilgan metodlar 4K ning qaysi yondashuviga asoslanganligini tahlil qilamiz.

“Doira” metodi

Qo'llanilishi: O'quvchilar kengroq hajmdagi xonada doira shaklida turishadi va bir – biriga qarab birorta tarixiy voqea haqida ma'lumot beradi. Misol uchun kimdir Shayboniyxon 1451-yilda tavallud topgan deb aytsa, kimdir Bobur Mirzo 1512-yilda Shoh Ismoil yordamida Samarqandni qo'lga kiritdi deydi. Ma'lumotlar shu singri davom etib ketaveradi. Ushbu metodning asosiy shartlaridan biri shuki, o'quvchilar biri aytgan ma'lumotni ikkinchi o'quvchi takrorlamasligi kerak. Agar kim boshqa birov aytgan ma'lumotni takrorlasa o'qindan chiqadi.

Ushbu metod orqali o'quvchilarda kommunikativlik va kollaboratsiya ni rivojlantirishimiz mumkin.

“Assesment” metodi

“Assesment” metodi – shaxsning o'z – o'zini baholashga yo'naltirilgan metod hisoblanadi.

“Assesment” – so'zining ma'nosi inglizchadan tarjima qilinganda “baholash” degan ma'noni bildiradi. Unin maqsadi – o'quvchilarning bilimini turli xil yondashuv va usullar orqali baholash, tahlil qilish, sinab ko'rish va o'z o'zini baholashga imkoniyat yaratadi. Ushbu metodni quyidagicha tashkil etishimiz mumkin:

- Sinfdagi o'quvchilar to'rt guruhga bo'linishadi.

➤ Guruhga sinf o'quvchilari orasidan sardor tayinlanadi. Ushbu sardorlarga topshiriqni bajarish bilan birga boshqa guruhlar ishini baholab boorish ishlari ham topshiriladi.

➤ Sardorlar tarixiy mavzular yuzasidan yozilgan konvertlarni tanlaydilar.

➤ Guruh a'zolari o'z topshiriqlarini flipga yozib tayyorlaydilar.

➤ Taqdimot. Har bir guruh vakillari o'z topshiriqlarini o'z navbati bilan bayon etadilar.

➤ Guruh sardorlariga yana bir yangi vazifa yuklatiladi. Ya'ni guruh sardorlari boshqa guruhlar ishini baholaydilar, barcha sardorlar ballari umumlashtirilib, g'olib bo'lgan guruh aniqlanadi va rag'batlantiriladi.

Yuqorida keltirilgan texnologiya o'quvchilarda kritik fikrlashni shakllantiradi va rivojlantiradi.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, tarix darslarida umumiy olganda ta'limning barcha yo'nalishlarida zamonaviy 4K modelidan foydalanish o'quvchilarning bilim olishini yaxshilaydi, ularni yangi texnologiyalar bilan tanishiradi. XXI asr o'qituvchilari ham, o'quvchilari ham yangilikka chanqoq. Shuning uchun dars jarayonida ko'proq yangi usullardan foydalanish maqsadga muvofiq. Agar bugungi kunda eski tartibdagi dars o'tish usullaridan foydalanadigan bo'lsak o'quvchilarda darslarga nisbatan e'tiborsizlik hissi paydo bo'lishi mumkin. Shuning uchun zamonaviy o'qituvchilarimiz har tomonlama yetuk, zamon bilan hamnafas bo'lishlari kerak. Yuqorida keltirilgan noodatiy yondashuvlar natijasida o'quvchilarning dunyoqarashi, fikrlashi va ta'lim olishi rivojlanadi. O'quvchilarni yangi bilimlarni olishga undaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://lex.uz> .
2. Avliyoqulov N.X., Musayeva N. Pedagogik texnologiyalar. Toshkent. 2008.
3. G'afforova T. Boshlang'ich ta'limda zamonaviy peadagogik texnologiyalar. Toshkent. 2015.
4. Internet tarmog'idagi ma'lumotlar.